

BOLALARDA KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANТИRISH OMILLARI

Xaydarova Shaxlo Narzullayevna

Navoiy davlat pedagogika instituti. PhD

Xayrullayeva Marjona Sobirjon qizi

NavDPI. Maktabgacha ta'lim yo'naliishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya:

Bolalarda kreativlik, ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, ijodkorlik, yaratuvchanlik, intellektual, individual xususiyatlari, istedod, ijodiy qobiliyat, ijtimoiy hayot, ichki sezim, psixologik iqlim.

Аннотация:

Обсуждается роль семьи и дошкольных образовательных организаций в формировании детского творчества и творческих способностей.



Ключевые слова: творчество, креативность, творчество, интеллектуал, индивидуальные особенности, талант, творческая способность, социальная жизнь, внутреннее переживание, психологический климат.

Abstract:

The role of family and pre-school educational organizations in the formation of children's creativity and creative abilities is discussed.

Key words: creativity, creativity, creativity, intellectual, individual characteristics, talent, creative ability, social life, inner feeling, psychological climate.

Bugungi axborotlar oqimi jadallik bilan rivojlanayotgan davrda ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarida, shu jumladan ta'lim-tarbiya sohasiga ham ko'plab innovatsion yangiliklar kirib kelmoqda. Shu jumladan bugungi kunda bolaning kreativlik qobiliyatini oshirish haqida ham juda ko'p fikrlarga duch kelamiz.

Kreativlik (lotincha create-yaratish, inglizcha creative-yaratuvchi, ijodkor) individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorgarlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsda kreativlik (ijodkorlik) sifatlarini rivojlantirish tushunchasining ma’nosini tushunib olish talab etiladi. Ijodkorlik qobiliyatiga ta’sir ko‘rsatadi va o‘z navbatida ichki sezimni rivojlantiradi. Ijodkorlik qobiliyati, ichki sezim va umumiy intellekt kesishganda ijod mahsuli yaratiladi. Tarbiyachining mashg‘ulot jarayonida mavzuni mustahkamlashga doir savollar berishi va tarbiyalanuvchilarning savolga javob berishga undash, ularlarning javob berish ko‘nikmalar shakllanib, suhbat boyib va kengayib boradi. Masalan, markazlarda olib borilgan faoliyat jarayonida guruhsa savol berib, tarbiyachi bir savolning o‘ziga bolalardan har xil javoblar oladi; Kim boshqacha o‘ylaydi? Kim aniqroq aytadi? kabi savollar bilan murojaat qilib, ularni rag‘batlantiradi. Natijada bolalarda asta-sekin ijodiy faollikni rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan sifatlar shakllanib boradi. Bundan tashqari individual shaklda olib borilgan suhbat tarbiyalanuvchilar ishidagi kamchiliklarini to‘g‘rilashga imkon beradi, yakka yondashish qoidasini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi.

Kreativlik -hozirgi kunda ko‘p eshitiladigan so‘z. Bolada kreativlik bo‘lishi juda muhim hisoblanadi. Kreativlik- bu ijodkorlikdir. Hozirgi kunda aqli bo‘lish yetarli emas, kreativ bo‘lish kerak. Biron talabni bekamu ko‘st bajarish ko‘pchilik qo‘lidan keladi, lekin talabni o‘ylab topish, yanglik kiritish, ishga ijod bilan yondashish, yangi yo‘llarni izlash, yangi ko‘rinish topish, yangi usul qo‘llash hammaga ham xos qobiliyat emas. Agar doimiy ravishda bolaga qo‘pol muomalada bo‘lib, baqirib gapirilsa, bu jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, tarbiyadagi shafqatsizlik bola uchun surunkali stress muhitini yaratadi, buning asoratlari esa bola katta bo‘lganida ham namoyon bo‘lishi, bunday tarbiya bolaning rivojlanayotgan miyasiga ta’sir qilishi, boshqa salbiy oqibatlari bilan birga garmonal o‘zgarishlar, shamollahlar hamda yurak qon tomir faolligi susayishining kuzatilishi va bolaning kreativlik qobiliyatlarini rivojlanishiga ham to‘sqliq qiladi. Bu esa uning jismoniy holatiga, bolaning ijodkorligiga, mustaqil fikrlashga to‘sqinlik qiladi.

Barcha bolalar juda qiziquvchan bo‘lishadi. Ular bu dunyoni hamma yo‘llar bilan kashf etishga harakat qilishadi va unga qo‘shilishadi. Shu bilan birga, ular ota-onalaridan biror narsa mumkin emasligini tez-tez eshitadilar. Keyin kattalar bolalarning nima uchun hech nimani istamasligiga hayron bo‘lishadi. Ko‘pgina ota-onalar farzandini uyda ijodiy ish bilan shug‘ullanishiga to‘sqinlik qiladilar, chunki



ular atrofdagi narsalarni kir qilishadi deb o'ylaydilar. Shu orqali biz bolaning istedodini yo'q qilishimiz mumkin.

Bola jamiyatning bir bo'lagi, unga bir shaxs sifatida qarashimiz kerak. Alovida mustaqil shaxs, boshqa odamlar bilan qanday gaplashsak, xuddi shunday muloqot qilishimiz kerak bo'lgan shaxsdir. Bolalarni individual xususiyatlari, qiziqishi, ijodkorligini doimo qo'llab-quvvatlab turishimiz kerak. Bola bilan umumiy muloqot tilini topish uchun unga buyruq ohangida emas, suhbatdoshiga qiziqish bildirgan kabi, pedagogik maqsadlarsiz muloqotda bo'lish kerak. Ona yoki ota bola atrofida o'z real xayotini shakllantirmasdan, uni o'z mustaqil hayotiga, o'z realligiga ega bo'lishiga imkoniyat yaratib berishi lozim. Bolani qanday qilib ijodkor, erkin shaxs sifatida ulg'aytirish mumkin? Bola o'zi mustaqil ravishda qaror qabul qilishni o'rgana boshlasagina, o'zini anglay boshlaydi. Agar ota-onada hayotga bo'lgan qarashlarini bolaga singdira boshlashsa, u birovni fikriga tobe, o'z mustaqil fikriga ega bo'limgan shaxsga aylana boshlaydi. Agar bola tazyiqlarsiz o'z real hayotini yarata olsa, o'z hayotining ijodkoriga aylanib boradi.

Bolaning erkinligini, mustaqilligini tan olgan holda, uning oldida har bir narsaga mas'uliyat hissini tug'dirib borish o'ta muhim. U yechishi kerak bo'lgan muammolardan qo'rmasligi, shu bilan birga, bu muammoga yechimi topib bilishi kerak. Sport va badantarbiya mashqlarini bajarish, mehnatning o'ziga yoqqan turlari bilan shug'ullanish, organizmni chiniqtirib borish bola uchun g'oyat muhimdir.

Buyuk mutafakkir Suqrot aytgandek:

"Bolalar yashashni hayotdan o'rganadilar! Agar bola tanqid qilinaversa, u nafratlanishni o'rganadi, agar bola adovatda yashasa, u tajovuzkorlikka o'rganadi, agar bola masxara qilinsa, u indamas, odamovi bo'lib qoladi, agar bola hadeb tanqid qilinaversa, u o'zini gunohkor his qilib o'sadi. Agar bola sabr-toqat, xotirjamlik bilan o'stirilsa, u boshqalarni tushunishni o'rganadi, agar bola qo'llab-quvvatlansa, u o'z kuchiga ishonishni o'rganadi, agar maqtalsa, u minnatdor bo'lmoqlikni o'rganadi. Agar bola vijdoniylik va halollikda ulg'aysa, uadolatli bo'lishni o'rganadi, agar havfsizlikda yashasa, u insonlarga ishonishni o'rganadi".

Bolalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning maqsad va vazifalari, ijodkorlik, yaratuvchanlik, bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llay olish kabi malakalarni tarkib toptirishdir.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda ota-onalar hamda pedagog-tarbiyachilar ilk yoshlikdan boshlab, bolani nimalarga qiziqishi qaysi o'yinchog'ini sevib o'ynashi, bo'sh vaqtida mashg'ul bo'ladigan faoliyatini va tug'ma layoqatini aniqlab, uni imkoniyatlarini rivojlantirishi uchun qulay shart-



sharoit, ijtimoiy muhit, qulay psixologik iqlim yaratib bersalar, mustaqil davlatimiz kelajagi bo'l mish, har tomonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli, yuksak ma'naviyatli, takrorlanmas qobiliyatli barkamol avlodni tarbiyalashdek muhim vazifaga o'zlarining ulkan hissalarini qo'shgan bo'lar edilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. F.R. Qodirova, SH.Q. Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur" -T., 2019
2. S.X.Jalilova, S.M. Aripova. "Maktabgacha yoshdag'i bolalar psixologiyasi". O'quv qo'llanma. Toshkent: Faylasuflar nashriyoti, 2017
3. N.Muslimov. "Pedagogik komponentlik va kreativlik asoslari". Toshkent., 2015
4. Haydarova Shahlo Narzullayevna. Mehribonlik uyi bolalarinining ijtimoiy hayotga moslashuv omillari. "UZACADEMIA" SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. 30-dekabr, 2020-yil. 3-qism. 163-165.
5. Ҳайдарова Шаҳло Нарзуллаевна. Мехрибонлик уйи тарбияланувчиларини оиласвий ҳаётга тайёрлашнинг педагогик асослари. «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. VOLUME #1, ISSUE #1, 2020/XI. 149-154.
6. Xaydarova Shaxlo Narzullaevna, (2021). Pedagogical Approach To The Preparation The Children Of The Orphanage For Family Life. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(02), 23-27.
- 7.Хайдарова Ш.Н. ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ПОДГОТОВКЕ ВОСПИТАНИКОВ ДЕТСКОГО ДОМА К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ. Colloquium-journal №8 (95), 2021. Czesc 2. (Warszawa, Polska)
8. Internet ma'lumotlar. www.ziyonet.uz

